

## TURIZMDA AXBOROTNING O'RNII

**Jurabayeva Fotima Zafar qizi**

Andijon davlat universiteti ijtimoiy-iqtisodiyot fakulteti  
Gid hamkorligi va tarjimonlik faoliyati 2-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10938627>

**Annotatsiya.** Rivojlanishning hozirgi bosqichida xo'jalikning har qanday tarmog'i kuchli axborot ko'magisiz ishlay olmaydi. Turli fan sohalari bo'yicha ma'lumotlardan turizm maqsadlarida ham foydalaniladi. Bu maqolada turizm axborotning ahamiyati tadqiq qilinadi.

**Kalit so'z:** turizm, axborot, axborotlashtirish, yo'l, kitob.

## THE ROLE OF INFORMATION IN TOURISM

**Abstract.** At the current stage of development, any branch of the economy cannot work without strong information support. Information on various scientific fields is also used for tourism purposes. This article explores the importance of information in tourism.

**Key words:** tourism, information, information, road, book.

## РОЛЬ ИНФОРМАЦИИ В ТУРИЗМЕ

**Аннотация.** На современном этапе развития ни одна отрасль экономики не может работать без мощного информационного обеспечения. Информация по различным научным направлениям также используется в туристических целях. В этой статье исследуется важность информации в туризме.

**Ключевые слова:** туризм, информация, информация, дорога, книга.

Axborot texnologiyalari - bu ma'lumotlarni boshqarish va qayta ishlash texnologiyalaridir.

Uning rivojlanishi bevosita kompyuter texnologiyalari bilan bog'liq bo'lib, hozirgi kunda keng qo'llanib kelayotgan tushunchalardan biri hisoblanadi. Axborot texnologiyalari sohasida turli axborotlarni kompyuter va uning tarmoqlari orqali yig'ish, saqlash, himoyalash, qayta ishlash, uzatish kabi amallar ustida ishlar olib boriladi. 1

O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida" gi (2003-yil 11-dekabr) qonuniga asosan axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosati axborot resurslari, axborot texnologiyalari va axborot tizimlarini rivojlantirish hamda takomillashtirishning zamonaviy jahon tamoyillarini hisobga olgan holda milliy axborot tizimini yaratishga qaratilgan. Axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

-har kimning axborotni erkin olish va tarqatishga doir konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirish, axborot resurslaridan erkin foydalanilishini ta'minlash;

-davlat organlarining axborot tizimlari, tarmoq va hududiy axborot tizimlari, shuningdek yuridik hamda jismoniy shaxslarning axborot tizimlari asosida O'zbekiston Respublikasining yagona axborot makonini yaratish;

-xalqaro axborot tarmoqlari va Internet jahon axborot tarmog'idan erkin foydalanish uchun sharoit yaratish;

-davlat axborot resurslarini shakllantirish, axborot tizimlarini yaratish hamda rivojlantirish, ularning bir-biriga mosligini va o'zaro aloqada ishlashini ta'minlash;

<sup>1</sup> N.R.Zaynalov. Turizm axborot texnologiyalari.(O'quv qo'lanma). -T.: «Voriz-nashriyoti», 2017

- axborot texnologiyalarining zamonaviy vositalari ishlab chiqarilishini tashkil etish;
- axborot resurslari, xizmatlari va axborot texnologiyalari bozorini shakllantirishga ko'maklashish;
- dasturiy mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlantirilishini rag'batlantirish;
- tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, investitsiyalarni jalb etish uchun qulay sharoit yaratish.

O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida" gi (1999-yil 20-avgust) qonuniga asosan turistning huquqlaridan biri bu: "sayohatga taalluqli to'liq va ishonchli axborot olish",- bo'lsa, turistik faoliyat subyektining majburiyatlarida "turistlarga turni tashkil qilish, ularning huquqlari va majburiyatlari to'g'risida to'liq axborot berishi" belgilab qo'yilgan. 2

Bugungi kunda turistik xizmatlarni bronlashda turli avtomatlashtirilgan axborot tizimlari muhim rol o'ynaydi.

Turistik resurslar, turistik mahsulotlar ma'lumotlarining axborotlari turli xil - kitoblar, spravochniklar, kataloglar, prospektlar, yo'l ko'rsatkichlar, jadvallar ko'rinishlarida aks etadi.

Ko'pchilik turistik kompaniyalar o'z tarkibida nafaqat xususiy turistik agentligi, balki quvvatli axborot markazlari va nashriyotlariga ham egadirlar. Masalan, Buyuk Britaniyaning "Reed Travel Group" turistik agentligi bunga misoldir.

Ta'kidlab o'tish kerakki, yo'l ko'rsatuvchi kitoblar turizmning o'zi rivojlanishidan ancha oldin ishlab chiqilgan. Tomas Kuk birinchi bo'lib turistik sayohatni tashkil qilgan paytda, Londondan Parijga sayohat qilishni amalga oshirish uchun yo'l ko'rsatuvchi kitoblar bor edi. Ko'pchilik yo'l ko'rsatkichlar 100 yillik tarixga ega.

Bugungi kunda ko'pgina axborot oqimlari SD - disklarda jamlangan. 1990 - yil kompyuter bilan ta'minlashdagi texnik inqilob turizm maqsadlari uchun kuchli avtomatlashtirilgan tizimni vujudga keltirdi.

Jahon Global kompyuter tizimlari axborot tashuvlarini birinchi navbatda havo transporti hamda mehmonxona va boshqa xizmatlarni bronlashni tashkil qilishda keng tarqalgan.

Turistik axborotni rivojlantirishda yana bir juda katta turtki internet global tarmog'i bo'ldi.

Bugungi kunda deyarli barcha turistik firmalar e-mail elektron pochta orqali ushbu tarmoqqa chiqish imkoniyatiga ega. Tarmoqdan foydalanuvchilarning barchasi turistik xizmatlar haqida keng axborot olishda ulardan foydalanadilar.

Turizmga javob beruvchi davlat tashkilotlari, xususiy kompaniyalar, turistik firmalar, otellar, turistik assotsiatsiyalar, tashuvchilar, attraktsiya xizmatini taklif etuvchi firmalarda katta axborot tizimlari mavjud.

Axborotni internet tarmog'iga joylashtirish umumiy holda kitob yoki buklet chiqarishdan arzon, axborot oson va tez ko'rinishini o'zgartiradi, yuqori sifatli rangli illyustratsion ma'lumotni ham uzatish mumkin. Axborot rivojlangan mamlakatlardagi foydalanuvchilarning keng doirasiga yetib boradi.

---

<sup>2</sup> Mirzayev Ural Namozovich. Turizm va mehmonxona biznesi taraqqiyotida axborot texnologiyalarining o'rni va ta'siri. Международный научный журнал «Новости образования: исследование в XXI веке» № 11(100), часть 2 Июня, 2023

## REFERENCES

1. N.R.Zaynalov. Turizmda axborot texnologiyalari. (O'quv qo'lanma). -T.: «Vorishashriyoti», 2017.
2. Mirzayev Ural Namozovich. Turizm va mehmonxona biznesi taraqqiyotida axborot texnologiyalarining o'rni va ta'siri. Международный научный журнал «Новости образования: исследование в XXI веке» № 11(100), часть 2 Июня, 2023
3. G'ulomov S.S., Begalov B.A. "Informatika va axborot texnologiyalari". Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. Toshkent, 2010 yil.
4. Safaeva S.R. Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish. O'quv qo'llanma. T.: TDIU, 2011.- 299 b.
5. Макарова Н.В., Волков В.Б. Информатика: Учебник для вузов. – СПб.: Питер, 2011. – 576 с.
6. Информационное обеспечение туризма: учебник / Н.С. Морозов, М.А. Морозов, А.Д. Чудновский, М.А. Жукова, Л.А. Родигин. – М.: Федеральное агенство по туризму, 2014. – 288 с.
7. М.А.Морозов, Н.С.Морозова «Информационные технологии в социальнокультурном сервисе и туризме. Оргтехника.» – 3-е изд., стер. – М.:Издательский центр «Академия», 2005. – 240 с.
8. Карабаев, М. К., Абдуманнонов, А. А., & Махмудов, Н. И. (2013). Об интеллектуализации медицинских информационных систем. *Современная наука: актуальные проблемы теории и практики. Серия: Естественные и технические науки*, (9-10), 60-65.